

YOSHLARDA AXBOROT HURUJIGA QARSHI MA’NAVYIY-AXLOQIY IMMUNITETINI SHAKLLANTIRISHDA OILANING O’RNI

O’ktamova Moxlaroyim Rustambek qizi
Andijon davlat pedagogika instituti
“Pedagogika va psixologiya” kafedrası
Pedagogika yo’nalishi 1-kurs magistranti
mohlaroyimtoxtaboyeva9@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19421171>

Annotatsiya: *Ushbu tezisda yoshlarda axborot hurujiga qarshi ma’naviy immunitetini shakllantirishda oilaning o’rni tahlil qilinadi. Global axborot maydonida yosh avlodning mafkuraviy va ruhiy holatiga ta’sir ko’rsatadigan salbiy axborot oqimlari tobora ortib bormoqda. Shuning uchun yoshlarning axborot xurujlariga qarshi immunitetini shakllantirish, ularni ma’naviy qadriyatlar asosida tarbiyalash dolzarb masala hisoblanadi. Tadqiqotda, yoshlar mafkurasini shakllantirishda oilaning qanday ahamiyatga ega ekanligi yoritilgan.*

Kalit so’zlar: *Oila, ma’naviyat, mafkuraviy immunitet, axborot erkinligi*

Bugungi rivojlangan texnologiyalar davrida yoshlar ongiga salbiy ta’sir qiluvchi buzg’unchi, destruktiv g’oyalarga qarshi ma’naviy immunitet hali to’la shakllanmaganligini, ularda eshitgan yoki o’qigan ma’lumotiga ishonuvchanligi yuqoriligini nazarda tutsak, bu yaxshigina e’tibor qaratish zarur bo’lgan dolzarb masalalardan biridir. O’zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A.Karimovning “Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch” asarida ta’kidlanganidek: “Bugungi kunda inson ma’naviyatiga qarshi yo’naltirilgan, bir qarashda arziyasiz bo’lib tuyuladigan kichkina xabar ham axborot olamidagi globallashtirish shiddatidan kuch olib, ko’zga ko’rinmaydigan, lekin zararini hech narsa bilan qoplab bo’lmaydigan ulkan ziyon yetkazishi mumkin”. Ta’kidlash lozimki, yoshlar asosan ko’p vaqtini ijtimoiy tarmoqlarda o’tkazmoqda, internetda tarqatilayotgan yolg’on(fake) habarlar va qo’poruvchilik ruhidagi axborotlar orqali ba’zan harbiy harakatlar evaziga amalga oshirib bo’lmaydigan maqsadlarga ham erishish mumkin. Bunday axborot xurujlari esa yoshlarning ma’naviy-axloqini, psixologik dunyoqarashini, siyosiy nuqtai-nazarini va eng asosiysi o’z milliy qadriyatlari va e’tiqodini maqsadli ravishda o’zgartirishga qaratilganligini unutmaslik kerak. Buning asosiy sabablaridan biri esa yoshlar ongiga yod g’oyalarni singdiruvchi internet olami, ijtimoiy tarmoqlar, xilma-xil kompyuter o’yinlari va zararli ilovalar.

Statistik ma’lumotlarga ko’ra, shaxsning 80% axloqiy qadriyatlari 7yoshgacha shakllanadi. Oila - birinchi va eng muhim ma’naviy maktab. Lekin muammo shundaki, ko’plab ota-onalar o’zlari ham raqamli dunyoda “adashgan”. Shuning uchun oila tarbiyasi endi butun oilaning birga o’sishi jarayoniga aylanishi kerak. Qolaversa, nafaqat yoshlarda balki ularning ota-onalarida ham axborot xavfsizligini ta’minlash maqsadida axborot madaniyatini yuksaltirish, ya’ni ularga axborotni saralash va undan ongli foydalanish ko’nikmalarini shakllantirish zarur. Shunday ekan, har bir shaxs ma’lum axborotning foydali yoki zararli ekanini ajratib oladigan darajada yetarli bilim va ko’nikmaga ega bo’lishi, ma’lum axborotning o’z professional faoliyati va shaxsiy hayoti uchun to’g’ri baholay olishi zarur. Shu bilan birga, axborot maydonining mutlaq erkinlashuvi, ijtimoiy tarmoqlarning sun’iy algoritmlar asosida ishlashi, ko’p hollarda “axborot xurujini” ni “axborot erkinligi” niqobi ostida amalga oshirishga xizmat qilmoqda. Yoshlarda axborot hurujiga qarshi ma’naviy immunitetini shakllantirishda ota-onaning o’rni alohida ahamiyat kasb etadi. Sababi, ota-onaning yoshlarga berayotgan e’tibori, mehri, nazorati va albatta ijobiy namunalari ularning ma’naviy ongini shakllanishiga yordam beradi. Yoshlarda axborot hurujiga qarshi ma’naviy-

axloqiy immunitetni shakllantirishda oilaning o’rni mavzusidagi tezislarinigiz uchun quyidagi olimlar nazariyalaridan foydalanishingiz mumkin. Ular asosan O‘zbekiston va Rossiya ilmiy adabiyotlarida keng tarqalgan bo‘lib, oilaviy tarbiya (oilaviy muhit, ota-ona namunasi, milliy qadriyatlar uzatish) ni yoshlarning ichki e’tiqodi va ruhiy himoyasini mustahkamlashning asosiy mexanizmi sifatida ko‘rsatadi. M. Usmonovning “Milliy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi” tadqiqotida keltirilishicha “...Oilaviy tarbiya yoshlarda milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida mustahkam e’tiqod hosil qilish orqali axborot xurujlariga (zararli g‘oyalar, internet tahdidlari) qarshi ma’naviy-axloqiy immunitetni shakllantirishning yetakchi omili hisoblanadi. Ota-onalar farzandlarni nafaqat xavf-xatarlardan ogohlantirishi, balki ularning ichki dunyosini boyitishi, ajdodlar merosi va axloqiy tamoyillar asosida tarbiya qilishi kerak. Bu yoshlarga ongli qaror qabul qilish va zararli ta’sirlarga bardosh berish qobiliyatini beradi. S.Yu. Maxmudov esa oilaviy tarbiya ma’naviy-axloqiy immunitetni shakllantirishning asosiy mexanizmi sifatida ko‘riladi: oila yoshlarni milliy madaniyat, urf-odatlar va axloqiy me’yorlar orqali “mafkura himoyasi”ga o‘rgatadi. Oila ta’lim tizimi va diniy-ma’rifiy omillar bilan birgalikda axborot xurujlariga qarshi kurashda yetakchi rol o‘ynaydi

Zamonaviy texnologiyalar davrida internet tarmoqlari orqali buzg‘unchilik, zo‘ravonlik va axloqsizlikni, “ommaviy madaniyat”ni targ‘ib etadigan saytlarni soni ko‘payib bormoqda. Bunday vaziyatda nafaqat ota-ona balki butun jamiyat yoshlarga katta e’tibor qaratish zarur. Barchamiz mas’uliyatni his qilib yoshlarni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltira olmasak, ana shu g‘araz niyatli kimsalar farzandlarimiz ongini zaharlashlari oson kechadi.

Axborot hurujlariga qarshi kurashishda birdaniga barchasini hal qiladigan yagona yechim bo‘lmaydi. Bu holat kompleks yondashuvni talab qiladi. Shunday ekan, yoshlarimizni ma’naviy immunitetini mustahkamlashdan avval uni hosil qilishimiz zarur. Agar ular o‘z milliy qadriyatlari, tarixi va madaniy merosi haqida chuqur bilimga ega bo‘lsa, har qanday g‘arazli yod g‘oyalar qarshisida tura oladi.

Xulosa qilib aytganda, dono xalqimiz ta’kidlaganidek: “Jaholatga qarshi-ma’rifat”. Ya’ni yoshlarimiz bosh vaqtlarini kitob o‘qish, til o‘rganish umuman olganda ilm olish bilab o‘tkazsalar yuqorida ko‘rib chiqilgan xavf-hatarlar oldi olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Islom Karimov “Yuksak ma’naviyat- yengilmas kuch” ma’naviyat nashriyoti 2008-yil.
2. “Yoshlarda axborot hurujiga qarshi ma’naviy immunitetini shakllantirishning pedagogik va psixologik xususiyatlari” - SCIENCE SHINE international scientific journal №2
3. Usmonov M. Milliy qadriyatlar va yoshlar tarbiyasi // Yosh avlod tarbiyasida milliy qadriyatlarning o‘rni. – Toshkent: Fan, 20XX. – B. 45–67.
4. Hidoyatova I. Oilada ma’naviy-axloqiy tarbiya masalasi // CyberLeninka.ru. – 2023. – URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/oilada-ma-naviy-axloqiy-tarbiya-masalasi-1>.
5. Berkinov O.T., Buriboyev Sh.Sh. Ma’naviyatning shakllanishida oilaning ro‘li // In-Academy.uz. – 2024. – DOI: 10.5281/zenodo.10527404. URL: <https://in-academy.uz/index.php/zdpp/article/download/25962/16882/25035>.
6. www.in-academy.uz